Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319704

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI ISH BILAN BANDLIGINI STATISTIK TADQIQ ETISH

RAZIKOVA G.SH.
TDIU, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu tezisda aholini ish bilan bandligini statistik tadqiq etishning nazariy va amaliy jihatlari, mehnat bozoridagi o'zgarishlar, bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar hamda statistik tahlil usullari yoritilgan. Shuningdek, aholi bandligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Aholi bandligi, mehnat bozori, ishsizlik, statistik tahlil, iqtisodiy faol aholi, bandlik darajasi, mehnat resurslari.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bugungi bosqichida mamlakatlar taraqqiyoti darajasini baholashda nafaqat uzoq davr ustuvor ahamiyat kasb etgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning, balki ustun ravishda aholi turmush darajasi va sifatini namoyon etuvchi ijtimoiy tavsifdagi ko'rsatkichlarning ham o'rni ortib bormoqda. Mazkur ko'rsatkichlarning asosiy qismi aholi bandligi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan tarkib topganligi, rivojlangan mamlakatlarda bugungi kunda iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida "inson kapitali"ga urg'u berilayotganligi inobatga olinsa, aholi bandligi va u bilan bog'liq munosabatlarning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ish bilan ta'minlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Aholining samarali bandligi aholi daromadlarini oshirish, turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholini ish bilan bandligini statistik tadqiq etish mehnat bozoridagi jarayonlarni baholash, ishsizlik darajasini aniqlash hamda bandlik siyosati samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Statistik tadqiqotlarda mutlaq, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, dinamik qatorlar, indekslar va korrelyatsion tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

Ma'lumki, milliy hisoblar tizimi standartlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti o'zgarishiga bandlik, ishsizlik hamda yoshlarning savodxonlik darajasi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. "Bandlik" iqtisodiy kategoriya sifatida ish joyidan qat'iy nazar, kishilar o'rtasida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish borasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Bandlik darajasiga demografik omillar, iqtisodiy o'sish sur'ati, investitsiyalar hajmi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Published: 05.06.2026

Cite this article: Razikova G.Sh. (2026). Yangi O'zbekistonda aholini ish bilan bandligini statistik tadqiq etish. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319704

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash, bandlik darajasini oshirish hamda unga ta’sir etuvchi omillarni boshqarishda mehnat bozoridagi o’zgarishlar tendentsiyalarini iqtisodiy-statistik o’rganish muhim hisoblanadi.

Mehnat statistikasida aholining bandligini shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir etadi. Xususan:

- mehnat qilish yoshidagi aholi soni va uning ulushi;
- shahar va qishloq aholisi soni va uning ulushi;
- erkaklar va ayollar sonidagi tarkibiy o’zgarishlar;
- umr kechirish uzunligi;
- ko’chib kelish (ko’chib ketish) darajasi, aholi sonining o’zgarishi.

Bandlikni ish joy bilan ta’minlash va xo’jalik faoliyatida ishtiroki bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy munosabatlar to’plami bo’lib, bandlik moddiy omillar ishlab chiqarishga taalluqli iqtisodiy faol aholini tasvirlaydi.

Jahon mehnat bozorida yuz berayotgan global o’zgarishlar ta’sirida bandlik modellarida ham o’zgarishlar yuz bermoqda. Mehnat bozoridagi global o’zgarishlarning asosiy jihatlari ilmiy-texnika taraqqiyotining tobora rivojlanib borishi bilan izohlanib, u mehnat bozorining tarkibi hamda mehnat resurslarining malakasiga qo’yiladigan talablarning jiddiy o’zgarishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, global hamda milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan asosiy o’zgarishlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bandlik modellarida yuzaga kelayotgan o’zgarishlar va rivojlanish yo’nalishlarini tadqiq etishning ahamiyati ortib bormoqda.

Bandlik modellariga kontseptual yondashuvlarni ilmiy abstraktsiya usulida tadqiq etilishi natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozoridagi bandlik darajasining asosiy tendentsiyasi sifatida iqtisodiy faol aholi tarkibining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmat ko’rsatish sohalariga ko’chib o’tishini ko’rsatib o’tish mumkin.

2. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi bilan vaqtinchalik yollanuvchi ishchilarni jalb etish keng tarqalmoqda. Shu sababli bandlikning joriy davrdagi modeli vaqtincha mehnatdan foydalanishni kengaytirish bilan tavsiflanadi.

3. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi bilan bog’liq yana bir tendentsiya bu – mehnat resurslari umumiy tarkibidagi ayollar ulushining ortishidir.

4. Bandlik modelidagi mehnat intensivligi darajasi bo’yicha ishchilar ikki guruhga: mehnat sig’imi past, lekin ishchilarning kasbiy tayyorgarligi yuqori bo’lgan guruh va yuqori mehnat sig’imiga ega va kasbiy tayyorgarlik darajasiga talab past bo’lgan guruhga ajratish mumkin.

O’zbekiston Respublikasida 2015 yildan 2025 yilgacha bo’lgan davrda bandlar va ishsizlar soni, shuningdek, bandlik darajasining o’zgarishiga statistik baho berilgan (jadval).

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

jadval

O’zbekistonda bandlar va ishsizlar soni, bandlik darajasi holati, ming kishida

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Bandlar soni	13058,3	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1	13236,4	13538,9	13865,40	14014,20	14 261,90
Ishsizlar soni	709,4	724,0	837,0	1368,6	1335,3	1561,0	1441,8	1332,7	1024,1	836,0
Bandlik darajasi	68,2	68,7	69,2	67,4	68,1	66,0	67,0	67,2	67,9	68,3

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari tahlili natijalariga ko’ra, 2015 yilda band aholi soni 13058,3 ming kishini tashkil etgan bo’lib, 2025 yil boshida ushbu ko’rsatkich 14933,9 ming kishiga etgan. Umumiy hisobda, tahlil davri mobaynida bandlar soni 1875,6 ming kishiga yoki 14,4 %ga o’sgan.

Shu bilan birga, ishsizlar sonida ham muayyan o’zgarishlar kuzatildi. Agar 2015 yilda ishsizlar soni 709,4 ming nafarni tashkil etgan bo’lsa, 2025 yil boshida bu ko’rsatkich 744,9 ming kishini tashkil etdi. Bu esa ishsizlar sonining 35,5 ming nafarga yoki 5,0 %ga o’sganligini ko’rsatadi. Ammo shunga qaramasdan, bu ko’rsatkich 2020 yildagi eng yuqori daraja - 1 561,0 ming ishsizdan ancha kamaygan.

Bandlik darajasi esa tahlil davrida ayrim yillarda pasayish va ko’tarilishni namoyon etgan. 2015 yilda bandlik darajasi 68,2 %ni tashkil etgan bo’lsa, 2020 yilda u 66,0 % gacha pasaygan. Ammo keyingi yillarda o’sish qayd etilib, 2025 yil boshida 70,4 % ga etgan.

Umuman olganda band aholi soni va bandlik darajasida ijobiy o’sish kuzatilgan bo’lsa-da, ishsizlik muammosi hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu esa mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta’minlash, yangi ish o’rinlarini yaratish, kasb-hunarga yo’naltirish siyosati samaradorligini oshirish zarurligini ko’rsatadi.

Ishchi kuchining sifat va miqdor jihatidan o’sishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, shu bilan birga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish imkoniyatini beradi. Ishlayotgan aholi sonining o’sishi iqtisodiyotda faol ishchi kuchining ko’payishi demakdir. Bu mahsulot ishlab chiqarishni va xizmatlar

ko’rsatishni oshiradi, ya’ni umumiy ichki mahsulotning o’sishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, aholi bandligini ta’minlashda hududiy farqlar mavjud bo’lib, ayrim hududlarda ishsizlik darajasi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish va yangi ish o’rinlari yaratish bo’yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, aholini ish bilan bandligini statistik tadqiq etish mehnat bozori holatini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo’yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Aholi bandligini oshirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, kasb-hunarga o’qitish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. –T.: Sharq, 1998 (yangi tahrir). https://nrm.uz/contentf.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonuni (O‘RQ-616-I) // Xalq so‘zi, 1998, 22 may.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat statistikasi to‘g‘risida” gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2003, 12-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5052-sonli farmoni. www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3001-sonli qarori. www.lex.uz.

6. Резинкина С.Г. Модели анализа занятости и безработисы в России. Автореферат диссертатсии на соискание уч. степ. канд. экон. наук. –Ростов-на-Дону: 2004. –28 с.

7. Shakhlo T. Ergasheva, Gulmira Sh. Razikova, Mukaddas A. Umarova, Abbas A. Nabixodjayev, Umida A. Salikhodjaeva. Labor market development in the republic of uzbekistan: implications for quality. International Journal for Quality Research, 19(1), 183-198, 2025, doi: 10.24874/IJQR19.01-12.

8. Асракулов А.С. Неформалная занятост и анализ факторов, влияющихна неформалную занятост в Узбекистане / Регионалная экономика: теория и практика. –2019, №12. Россия. С.2328–2336.

9. Asraqulov A.S. Bandlik modellarini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar / Biznes-ekspert. Biznes–Daily media. –2019, №10. 46–50-b.

10. Asraqulov A.S. O‘zbekistonda aholi bandligidagi tendensiyalarning ekonometrik tadqiqi / Iqtisodiyot va ta’lim, 2019, №5. 86–89-b.

11. Asraqulov A.S. Norasmiy bandlikka konseptual yondashuvlar va uning O‘zbekiston mehnat bozoridagi darajasi / Biznes-ekspert. Biznes–Daily media, 2020, №1. 106–110-b.

12. Александрова М.А., Пахомова Е.А., Рожкова О.В. Основные подходы к эконометрическому моделированию занятости на основе отраслевой спесифики: материалы международной научной конференции Ворлд Ссиенсе–2017. Киров: МСНИП, 2017. С. 158–162.

13. http://www.mehnat.uz

14. www.elitarium.ru.

15. http://web.stat.uz/open_data/uz/.

16. http://www.stat.uz

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti